

PISAGA TAYYORLANISHDA O‘QIB TUSHUNISH, YOZMA SAVODXONLIK, GAPIRISH KO‘NIKMLARINI RIVOJLANTIRUVCHI METODLAR

Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

Pedagogik ta'lim bugungi kunda mahoratli, bilimli va tasavvuri keng pedagoglarni talab qilmoqda. Hozirgi maktab ta'limida o'qituvchining vazifasi nafaqat bilimlarni yetkazish, balki bilim va faoliyat usullarini o'zlashtirish jarayonini boshqarishdir. O'quvchining vazifasi sifatida bilimlarni o'rganish, tushunish va amaliyotda qo'llagan holda hayot bilan bog'lash kabilarni belgilash mumkin. Ana shularni inobatga olib, pedagoglar har bir darsni hayotning bir parchasidek tashkillashtirishi kerak bo'lmoqda. Ya'ni har bir o'quvchi jamiyatning bo'lagi, uni kelajakda mustaqil fikrlaydigan, muayyan kasb egasi bo'lib yetishishi kerak. Shularni oldindan ko'ra bilgan holda darslarning metodikasi kuchaytirish talab etiladi. Ilg'or ta'lim texnologiyalari o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan¹ligi yuqoridagilarga asos bo'ladi. Bu borada Sh. Mirziyoyevning nutqi haqiqiy vaziyatga berilgan to'g'ri baho edi. Shu paytgacha foydalanib kelinayotgan ta'lim standartlari, o'quv dasturlari faqat nazariy bilim berishga yo'naltirilgan bo'lib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, amaliyotga, hayotga o'rgatmayapti². Aynan o'quvchilarda o'qib tushunish va faollik, fikr yurita olib, uni bayon eta olishlari uchun yangi ta'lim texnologiyalari ishlab chiqish lozim. Shuni hisobga olgan holda quyidagi metodlarni taqdim etamiz.

SQ3R (survey, question, read, review, recite)³ metodi.

SQ3R- survey (ko'zdan kechirmoq), question (savol), read (o'qish), review (o'rganish, taqriz), recite (yoddan aytib bermoq) so'zlarining qisqartmasi sanaladi.

Bunda o'quvchilar berilgan matn bilan tanishib chiqadilar. Matn yuzasidan o'zi muhim hisoblagan ma'lumotlar asosida savollar tuzadilar. Matn shu asosda yana bir bor o'qib chiqiladi. Bunda diqqat jamlanib, o'zlari tuzgan savollarning javoblarini ham nazardan qochirmaydilar. Keyingi qadam matn yuzasidan o'quvchilar o'zlarining shaxsiy munosabatlarini berishlari kerak, ya'ni matndan olgan ma'lumotlar qanchalik muhim va kerakli kabi fikrlashga undovchi masalalarga izoh yozadilar. Ushu ta'lim texnologiyasining oxirgi bosqichi o'sha matnni butun holatda yoddan aytib berishlari kerak bo'ladi. Ushbu metod o'qib tushunish ko'nikmasini oshirishga xizmat qiladi.

Qutb yulduzi

Bilasizmi, yulduzlarning ham "yulduzi", ya'ni mashhurlari bo'ladi. Qutb yulduzi ana shundaylardan biri. Chunki u o'tgan davrlar mobaynida ko'plab adashganlarga yo'l ko'rsatib,

¹ Sh. M. Mirziyoyev. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor 28.01.22.

² Sh. M. Mirziyoyev. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor 28.01.22.

³ Neil Anderson. Active skills for reading: 1,2,3.

o‘z manzillariga eson-omon yetib olishlarida ko‘makchi bo‘lgan. Qadimda dengizchilar yoki sahrodagi karvonlar yulduzlarning joylashishiga qarab yo‘lni aniqlashgan. Yulduzlarni o‘rganib, ularning xaritasini chizib beradigan kishilarni esa “munajjim” deb atashgan. Qutb yulduzi osmondagi eng yorqin yulduzlardan biri bo‘lgani uchun uni topib olish qiyin emas. Olimlarning aytishicha, kunlar, oylar, ba‘zan yillar o‘tishi bilan yulduzlarning samodagi o‘rni o‘zgarib turar ekan. Faqatgina Qutb yulduzi o‘z joyidan hech qachon jilmaydi, doim osmonning shimoliy qismida yaraqlab turadi. Shunday o‘ziga xos xususiyati tufayli sayyohlar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va g‘arbni aniqlay olishgan. Qutb yulduzi Katta Ayiq yulduz turkumiga kiradi. U Quyoshdan 120 marta katta bo‘lib, 10 ming marta kuchliroq nur taratadi. Odamlarga yo‘l ko‘rsatib turgani uchun uni “yo‘lchi yulduz” deb ham atashgan. Juda olisda bo‘lgani bois ushbu yulduz nurlari Yergacha 472 yilda yetib keladi⁴.

Ushbu matn o‘quvchilar tomonidan ko‘zdan kechirilgach, muhim deb hisoblangan Munajjim kim?, Nima uchun qutb yulduzi “yo‘lchi yulduz” deb atalgan?, Qutb yulduzini quyosh bilan solishtiring, kabi savollar tuzishlari mumkin. Savollarga yozma javob beriladi va o‘quvchilardan matn yuzasidan qo‘shimcha fikrlarini daftarlariga yozishlari so‘raladi. Keyin matn yoddan aytib berilishi kerak.

Brainstorming – aqliy hujum atamasini Aleks Feykni Osbornning “Amaliy tasavvur” kitobida ilk bor uchratish mumkin. Bu “muammoga hujum qilish uchun miya” yondashuvidir. Aqliy hujumning birinchi bosqichida g‘oyalarni shubha ostiga qo‘yish va uni muhokama qilish qat’iyan man etilgan. Aqliy hujumdan maqsad muammoning to‘g‘ri yechimini topish yoki imkoniyatdan samarali foydalanishdir. Ushbu texnika quyidagi afzalliklarga ega: individual ijodkorlik orqali muammoni hal qilishni harakatga keltirishga yordam beradi; bir guruh odamlar muammo yechimini izlaganligi sababli muammoni bir tomonlama ko‘rib chiqish deyarli nolga kamayadi; uyushqoqlik va majburiyatni rag‘batlantiradi; har qanday g‘oya “g‘olib” bo‘lsa, individual faollikni oshirish imkonini beradi. Muammoga yechimdan oldin uning salbiy natijalar ssenariysini ishlab chiqishi kerak. Eng yomon holat va uni yuzaga keltiruvchi omillarni tasvirlashni so‘rash mumkin. Odamlar rasmlarda o‘ylaydi. Shunday vaziyatlar borki, so‘zda tasvirlash qiyin, ammo tasvirlar, rang sxemalari, yopishqoq yozuvlar orqali tushunchalar ishlab chiqish mumkin bo‘ladi⁵.

“Think-pair-share” – o‘ylab ko‘ring-juft bo‘ling-ulashing-o‘ylab ko‘ring – 30 soniya, bir daqiqa, darsdan oldin yoki dars paytida o‘ylang, yozib yoki og‘zaki savolga javob bering; juft bo‘ling- xona bo‘ylab yuring, rozi bo‘lmasangiz, fikr bildiring; ulashing- butun sinf bilan, boshqa guruh bilan og‘zaki yoki yozma holda fikr almashing. Ushbu o‘qitish texnikasi faol o‘rganish usuli bo‘lib, imkon qadar mulohazali savol beriladi va o‘quvchilar o‘z hamkorlari bilan mulohaza yuritadi va navbatma-navbat o‘z kuzatuvlarini sinfning qolgan a‘zolariga

⁴Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M... Ona tili darslik, 7-sinf, 2022.

⁵ <https://weje.io>

taqdim etishlari mumkin. Ushbu usul o'quv materialini kichik qismlarga ajratadi, ma'lumotlarni teskari va ichkariga aylantira oladi. Darsni jonlantirish va takrorlash uchun kerakli o'qitish usuli hisoblanadi. Tezlikni kamaytiradi, o'quvchini tinglovchidan gaplashishga undaydi. Axborotni og'zaki qayta ishlash uni o'rganish uchun yangi yo'llarni yaratishga yordam beradi. Ushbu metodni ilk darslarda qo'llash o'quvchilarning hech narsa bilmasliklarini isbotlaydi, shunga qarab o'rganuvchilar izlanishda bo'lishga majbur bo'ladi⁶. Tarqalgan so'zlar⁷ – sinf guruhlariga ajratiladi, ulardan muayyan turdagi so'z yozish so'raladi, so'ng navbatdan o'qittiriladi. Guruhlardagi har bir takrorlangan so'z uchun jarima ball beriladi, noyob javoblar uchun esa ball beriladi. Bu o'quvchilarda so'z boyligining oshishiga yordam berib, keng fikrlashga yo'l ochadi. bu metod so'zlar ustida ishlanganda samarali bo'lib, leksikologiya mavzularida yaxshi samara beradi.

Interleaving⁸– turli mavzulardagi savollar tartibini aralashtirish bo'lib, mavzularni takrorlashga yordam beradi. Bu jarayon aynan yangi darsliklar mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Sababi bunday darslikdagi mavzular chiziqli metod yordamida emas, balki spiralsimon metod orqali joylashtirilgan. Bunda kerakli vaqtli kerakli mavzuga murojat qilish imkoni tug'iladi. O'tdimi bo'ldi tamoyili bundan yiroq tutiladi.

Xulosa

Har bir dars o'quvchilarda o'qib tushunish, gapirish, yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qila oladigan saviyada tashkil etilishi lozim. 2022-yil nashr etilgan 6-7- sinf ona tili darsliklarining mazmuni ham o'quvchilarni hayotga, muloqot qilishga o'rgatishdan iborat. Hech qaysi fan mustaqil rivojlanmasligini hisobga olib, darsliklarda keltirilgan matnlar ham o'z ichiga turli mavzularni qamrab olgan. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni hayotga tayyorlash. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun esa yuqorida keltirilgan faol o'qitish metodlaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019-yil 6-may, 18-son, 348-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.10.2020-y., 06/20/6084/1398-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son.

⁶ <https://weje.io>

⁷ <https://senecalearning.com/blog/top-10>

⁸ Top-10 Classroom Games-Blog

4. Mirziyoyev Sh. M. Maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi 28.01.22.
5. Yusupova Sh. Oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. Ma'ruza matn.
6. "PISA" 2009//<https://www.oecd.org/>"PISA"products/46619755.pdf
7. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. Elektron manba.
8. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik. Ona tili. Toshkent:- 2022.
9. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7- sinfi uchun darslik. Ona tili. Toshkent:- 2022.
10. <https://weje.io>
11. <https://senecalearning.com/blog/top-10>
12. Top-10 Classroom Games-Blog